PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ONA TILI DARSLARIDA TIPIK LINGVISTIK XATOLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

G‘iyosova Mohinur Yoqubjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbek tili
va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarining 5–6-sinf o‘quvchilarida ona tili darslarida yo‘l qo‘yiladigan lingvistik xatolarni aniqlash, tasniflash va ular bilan ishlashning samarali texnologiyasi yoritilgan.O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida eng ko‘p uchraydigan orfografik, grammatik, punktuatsion va uslubiy xatolar tahlil qilinib, ularning sabablari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik xatolar, xatolar tasnifi, korreksion texnologiya, refleksiv ko‘nikmalar, orfografik xatolar, grammatik xatolar, ona tili ta’limi, 5–6-sinf.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda mustahkam orfografik, grammatik, punktuatsion va uslubiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ularning yozma va og‘zaki nutqida uchraydigan lingvistik xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik xatolar o‘quvchilarning til birliklari haqidagi bilimlari yetarli darajada shakllanmaganligini yoki muloqot jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko‘rsatadi. Shu sababli ona tili darslarida lingvistik xatolar bilan ishlash texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. “Orfografik ko‘nikmani shakllantirish an’anaviy metodikada ko‘pincha ko‘p martialab takrorlash, yod olish va diktant yozish bilan cheklanib qoladi. Biroq 5–6-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz shuni isbotladiki, so‘zning morfemik tarkibini chuqur anglash, uning etimologik ildiziga e’tibor qaratish, so‘z yasalish modellarini ongli idrok etish orqali shakllantirilgan orfografik ko‘nikma ancha mustahkam va uzoq muddatli bo‘ladi. O‘quvchi nega aynan shunday harf yozilishini tushunganidagina, bu bilim amaliy malakaga, so‘ngra avtomatlashgan ko‘nikmaga aylanadi”.[1]

Tipik lingvistik xatolarning tasnifi

5–6-sinf o‘quvchilarining yozma va og‘zaki nutqida uchraydigan tipik xatolarni quyidagi to‘rtta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1.Orfografik so‘zlarning imlo qoidalariga zid yozilishi,tovushlarning noto‘g‘ri talaffuz qilish.

2.Grammatik so‘z shakllari va gap qurilishidagi me’yor buzilishi,kelishik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri qo‘llash.

3.Punktuatsion tinish belgilarining noto‘g‘ri ishlatilishi.

4.Uslubiy nutq uslubiga mos kelmaydigan so‘z tanlash, takrorlar, sheva unsurlari.

Lingvistik xatolar bilan ishlash texnologiyasi

Lingvistik xatolar bilan ishlash quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1-bosqich. Diagnostika

Ushbu bosqichda o‘quvchilarning yozma ishlari, diktantlari va og‘zaki nutqi tahlil qilinadi. Xatolar qayd etilib, ularning turi va takrorlanish darajasi aniqlanadi.

2-bosqich. Tahlil qilish

[1] D. Shodmonqulova. “Umumta’lim maktablarida orfografik ko‘nikmalarni ongli shakllantirish texnologiyasi” (Toshkent: “Tafakkur”, 2022)

Aniqlangan xatolarning kelib chiqish sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagi omillar hisobga olinadi: nazariy bilimlarning yetishmasligi, e’tiborsizlik, sheva ta’siri, lug‘at boyligining kamligi, amaliy mashqlarning yetarli emasligi.

3-bosqich. Tuzatish ishlari

Xatolarni bartaraf etish uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi: xatolar ustida ishlash daftari, qiyosiy tahlil mashqlari, tahrirlash mashqlari, diktant va bayonlar,interfaol topshiriqlar.

4-bosqich. Mustahkamlash

O‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llaydilar. Turli ijodiy topshiriqlar va kommunikativ mashqlar orqali xatolarning qayta takrorlanishining oldi olinadi.

5-bosqich. Monitoring va baholash

Xatolar bilan ishlash natijalari muntazam nazorat qilinadi. O‘quvchilarning oldingi va keyingi natijalari taqqoslanadi.

Xatolar bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanish

Lingvistik xatolarni bartaraf etishda interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

“Orfografik bingo” o‘yini

Tavsifi: Ushbu o‘yin an’anaviy loto (bingo) tamoyiliga asoslangan. Har bir o‘quvchiga kataklari xatoli va to‘g‘ri yozilgan so‘zlar aralashmasi bilan to‘ldirilgan bingo kartochkasi beriladi. O‘qituvchi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qiydi. Agar o‘quvchining kartochkasida o‘qilgan so‘zning to‘g‘ri varianti bo‘lsa, uni belgilaydi. Kim birinchi bo‘lib gorizontal, vertikal yoki diagonal chiziqni to‘ldirsa – “Bingo!” deb baqiradi va g‘olib hisoblanadi.

Maqsadi: So‘zlarning to‘g‘ri yozilishini eslab qolish, eshitish idrokini rivojlantirish; diqqat va tezkorlik.

“Xato to‘pi”

Tavsifi: “Xato to‘pi” – butun sinf ishtirok etadigan, tezkor va ixcham interfaol o‘yin. Yumshoq to‘p yoki qog‘oz koptokcha ichiga xatoli so‘z yoki gap yozilgan varaqcha joylashtiriladi. To‘pni ushlab olgan o‘quvchi xatoni topadi, og‘zaki tuzatadi va qoidasini aytib beradi. O‘yin barcha o‘quvchining diqqatini jamlaydi, xatoni ongli tahlil qilishga majbur qiladi va zerikarli mashqni jonli muloqotga aylantiradi.

Maqsadi:Orfografik, grammatik, punktuatsion va uslubiy xatolarni tez aniqlash va tuzatish,og‘zaki refleksni rivojlantirish, qoidalarni eslab qolish.

“Rangli signal” o‘yini

Tavsifi: Svetofor tamoyiliga asoslangan ushbu o‘yinda har bir o‘quvchida uch xil rangli kartochka (yashil, sariq, qizil) bo‘ladi. O‘qituvchi so‘z yoki gapni talaffuz qiladi (yoki doskaga yozadi). O‘quvchilar kartochka ko‘tarib, “to‘g‘ri”, “shubhali” yoki “xato” deb baholaydilar. So‘ngra javoblar muhokama qilinadi.

Maqsadi: Orfografik va grammatik hushyorlikni oshirish; tezkor qaror qabul qilish; individual mas’uliyatni shakllantirish.

Yuqoridagi metodlar ixchamligi, minimal tayyorgarlik talab qilishi va yuqori interfaolligi bilan ajralib turadi. Ular darsning istalgan bosqichida qo‘llanishi, o‘quvchilarning lingvistik hushyorligini oshirishi va xatolar bilan ishlashni zerikarli mashg‘ulotdan qiziqarli faoliyatga aylantirishi mumkin.

Natijalar va muhokama

Amaliy kuzatishlar natijasida lingvistik xatolar bilan tizimli ishlash o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshiradi. Xatolar ustida muntazam ishlash natijasida o‘quvchilarning fonetik, leksik va grammatik bilimlari mustahkamlanadi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z nutqini nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xulosa

Ona tili darslarida tipik lingvistik xatolar bilan ishlash texnologiyasi o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Xatolarni aniqlash, tahlil qilish, tuzatish va monitoring qilish bosqichlarining izchil tashkil etilishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanish esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Shodmonqulova. “Umumta’lim maktablarida orfografik ko‘nikmalarni ongli shakllantirish texnologiyasi” (Toshkent: “Tafakkur”, 2022)